

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BEKMIRZAYEVA LOLA RAXMATULLAYEVNA

**BADIIY ADABIYOTDA HAYVONOT OLAMI MAVZUSI VA IJTIMOY
MUAMMOLAR TALQINI (Ch. Aytmatovning “Qiyomat” va
Sh. Bo‘tayevning “Qo‘rg‘onlangan oy” romanlari qiyosiy tahlili misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of the Abstract of Dissertation of Doctor of Philosophy (PhD)
in Philological Sciences**

Bekmirzayeva Lola Raxmatullayevna

Badiiy adabiyotda hayvonot olami mavzusi va ijtimoiy muammolar talqini
(Ch. Aytmatovning “Qiyomat” va Sh. Bo‘tayevning “Qo‘rg‘onlangan oy”
romanlari qiyosiy tahlili misolida) 3

Бекмирзаева Лола Рахматуллаевна

Тема животного мира и интерпретация социальных проблем
в художественной литературе (на примере сопоставительного анализа
романов Ч. Айтматова «Плаха» и Ш. Бутаева «Обрамленная луна») 27

Bekmirzaeva Lola Rakhmatullaевна

The theme of the animal world and the interpretation of social issues in fiction
(on the example of a comparative analysis of the novels “Judgement day” by
Ch.Aitmatov and “Framed Moon” by Sh.Butaev) 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

BEKMIRZAYEVA LOLA RAXMATULLAYEVNA

**BADIIY ADABIYOTDA HAYVONOT OLAMI MAVZUSI VA IJTIMOIIY
MUAMMOLAR TALQINI (Ch. Aytmatovning “Qiyomat” va
Sh. Bo‘tayevning “Qo‘rg‘onlangan oy” romanlari qiyosiy tahlili misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil1849 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdcht.uz) hamda "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Pardayeva Iroda Mamayunosovna**
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Umurova Go'zal Xotamovna**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Boboxonov Mavlon Rahmatillayevich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: **A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "12" may soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866)238-29-37; faks (99866) 210-00-18 ; e-mail:info@samdchti.ru)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61863 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "12" may kunda tarqatildi.
(2025-yil "12" may daqi № 20 raqamli reyestr bayonnomasi)



N.Z. Nasrullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'. Qo'ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotida hayvonot olami mavzusi va badiiy asarlarda ijtimoiy muammolar talqini muhim o‘rin egallaydi. Bu orqali yozuvchilar inson fitratini, uning atrof-muhitga munosabatini, shuningdek, ijtimoiy ziddiyatlar va axloqiy muammolarni chuqurroq anglash imkoniga ega bo‘ladilar. Badiiy asarlarda hayvonlar obrazi ko‘pincha jamiyatdagi muammolarni ramziy ifodalashning kuchli vositasi sanaladi. Ular orqali ekologiya, ijtimoiy adolatsizlik, hokimiyat va insonning dunyo oldidagi mas‘uliyati kabi masalalar yoritiladi. Bunday obrazlar nafaqat insonlar o‘rtasidagi munosabatlardagi axloqiy jihatlarga e‘tibor qaratishga imkon beradi, balki hayotning fundamental qonunlarini aks ettiruvchi umuminsoniy badiiy timsollar yaratilishiga ham zamin yaratadi. Shu kabi asarlar hayvonlar obrazi orqali ijtimoiy va siyosiy adolatsizliklarga qarshi norozilikni ifoda etish, hokimiyat va zo‘ravonlik tabiatiga nazar tashlash, shuningdek, o‘quvchilarni axloq, erk, hayot qadri va insoniyatning kelajagi haqidagi falsafiy savollar ustida o‘ylashga chorlash imkonini yaratadi.

Jahon adabiyotshunosligida umumiy mavzusiga va badiiy yo‘nalishiga ko‘ra mushtarak, biroq turli milliy an‘analar vakillari tomonidan yaratilgan asarlarni qiyosiy-tipologik o‘rganish hozirgacha faqat ayrim tahlil jihatlarni qamrab olgan, bu esa tadqiqot doirasini yanada kengaytirish zaruratini ta‘kidlaydi. Ayniqsa, hayvonot olami obrazlari orqali ijtimoiy muammolarni anglashga uriniladigan badiiy matnlar alohida e‘tiborga loyiq. Ko‘p millatli turkiy tillardagi nasriy adabiyot namunalarida tabiat va insonning o‘zaro ziddiyatli munosabatini ochib berish, falsafiy va axloqiy to‘qnashuvlarni ochiqlashda bunday uslub keng qo‘llaniladi. Bu borada hayvonlar – yo‘qolib borayotgan uyg‘unlik timsollari, yoki oliy axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi ramz sifatida tasvirlanadi. Ushbu jihatlarni tadqiq etish nafaqat milliy adabiyotlarning rivojlanish qonuniyatlarini ochishga yordam beradi, balki zamonaviy badiiy nasrni o‘rganishdagi eng ilg‘or nazariy yondashuvlarni integratsiya qilish imkonini ham yaratadi.

Mustaqillik yillarida romannavis yozuvchilarning XX asrdagi ijtimoiy-maishiy muammolarga nisbatan qarashlari sezilarli o‘zgarishlarga uchradi, bu o‘zgarishlar turkiyzabon xalqlar adabiyotida ham o‘z ifodasini topdi. Qirg‘iz va jahon adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri hisoblangan Chingiz Aytmatovning badiiy-falsafiy merosida jamiyat hayotiga oid muammolar chuqur falsafiy tahlil asosida yoritilgan. Shu bilan birga, o‘zbek nasrida munosib o‘rin egallab kelayotgan Shoyim Bo‘tayevning zamonaviy muammolarga bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy qarashlari hali yetarli darajada ilmiy o‘rganilmagan. Ushbu jihatlarni qiyosiy tahlil qilish, har ikki yozuvchining ijodida ijtimoiy jarayonlarni qanday talqin etganini aniqlash orqali, umumiy tendensiyalar va ularga xos individual o‘ziga xosliklarni ochib berish imkonini yaratadiki, bu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Adabiyot, san‘at, madaniyatga e‘tibor, eng

avvalo, xalqimiz haqida g'amxo'rlik ekanligini unutishga haqqimiz yo'q, va buyuk shoir Cho'lpon aytganidek, adabiyot tirik bo'lsa, millat ham tirikdir"¹.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 2-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 16-fevraldagi PQ-4958-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining: 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innivatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoning bir qator yetakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv yurtlarida animalistik adabiyot sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mavzu doirasida Michigan universiteti tadqiqotchisi Kiara Vigil² tadqiqot o'tkazgan bo'lsa, rus olimlari T.B. Belogurova va I.B. Grishuchkovalar tilshunoslik sohasida hayvonotshunoslik xususiyatlarini o'rganganlar³. Xo'jand davlat universiteti (Tojikiston) ilmiy xodimi B.T. Mirsaidov va rus olimi A.A. Mostepanovning tadqiqotlari o'rta asrlar davri va XX asr animalistik adabiyotining o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan⁴.

Ottava universiteti (Kanada) tadqiqotchisi I.X.Myu "Badiiy adabiyotda hayvonlar hayoti" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan⁵. Ko'plab xorijiy adabiyotshunoslar o'z tadqiqotlarini taniqli yozuvchilar ijodiga, ayniqsa, animalistika kontekstida amalga oshirgan. Bunday ishlar orasida Kaliforniya universiteti professori Jan Londonning "Jek London va uning davri", Kvebek

¹ Мирзиёев Ш. М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир. // Халқ сўзи, 2017. 4 август. – В. 1-2.

² Vigil K.M. Stories in Red and White Indian Intellectuals and the American Imagination, 1880-1930. PhD (American Culture). – University of Michigan, 2011. – 373 p.

³ Белогурова С.П. Анимализм как культурологический и художественный феномен в общественной мысли рубежа XIX – XX века: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – М., 2011. – 25 с.; Гришучкова И.Б. Лингвостилистическая специфика речевого поведения анималистического персонажа: на материале английских сказок: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Ставрополь, 2011. – 23 с.

⁴ Мирsaidов Б.Т. Художественный образ птиц в мистической поэзии средних веков (XI – XII вв): Автореф.дисс. ... канд. филол. наук. – Худжанд, 2004. – 24 с.; Мостепанов А.А. Анималистический жанр в английской литературной сказке XX века: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2011. – 24 с.;

⁵ Mew W.H. Short fiction's fabulous realities. PhD. Carleton University, Department of English. – Ottawa: Canada, 1982. – 125 p.

universiteti tadqiqotchisi F.S. Janning “Ernest Seton-Tompson: romantik tasvirlash” va Moskva davlat universiteti tadqiqotchisi I.E. Luninaning “Jek Londonning badiiy olami: inson-tabiati-sivilizatsiya” kabi ilmiy tadqiqotlarni alohida ko‘rsatish mumkin⁶.

Respublikamizda animalistika janri hamda Sh.Bo‘tayev ijodi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan⁷. Ammo bizning tadqiqotimizda yoritilgan mavzu hali alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti rus filologiyasi kafedrasining “Pragmatik va kognitiv adabiyotshunoslikning nazariy va amaliy masalalari: qiyosiy tarixiy tahlil va tarjima aspekti” yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Ch. Aytmatov va Sh. Bo‘tayevning ijtimoiy borliq muammolariga bo‘lgan g‘oyaviy-badiiy qarashlarini aniqlash va tizimlashtirish, shuningdek, ular asarlarida hayvonot dunyosi mavzusining tutgan o‘rnini tahlil etish, Ch. Aytmatovning «Qiyomat» hamda Sh. Bo‘tayevning «Qo‘rg‘onlangan oy» romanlari asosida ijtimoiy muammolarning badiiy adabiyotda qanday talqin etilishini qiyosiy tahlil asosida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Chingiz Aytmatov va Shoyim Bo‘tayevning ijtimoiy-mafkuraviy qarashlarining manbalari va nazariy-uslubiy asoslarini o‘rganish va tahlil qilish;

ikkala adib romanlarida inson va tabiat munosabatlari ustuvor darajada yoritilishini asoslash;

ijtimoiy muammolar talqinida yozuvchilar shaxsining ahamiyatini aniqlash, xususan, Ch.Aytmatov va Sh.Bo‘tayev qarashlaridagi o‘ziga xoslik va umumiylikni oydinlashtirish;

Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” va Shoyim Bo‘tayevning “Qo‘rg‘onlangan oy” romanlaridagi umumiy va o‘ziga xos jihatlarni, shuningdek, yozuvchilarning lingvomadaniy va lingvobadiiy mahorat xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romani va Shoyim Bo‘tayevning “Qo‘rg‘onlangan oy” romanidagi mavzu va badiiy obrazlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Chingiz Aytmatov va Shoyim Bo‘tayev asarlarida hayvonot olami mavzusining ijtimoiy muammolar ifodasi sifatida talqin etilishi tashkil etadi.

⁶ London Joane. Jack London and his time. California University (USA), 1956. – 132 p.; Jean F.S. Ernest Thompson Seton: The Romantic Imagination (Jhl) Quebec (Canada), 1978. – 256 p.; Лунина И.Е. Художественный мир Джека Лондона: человек-природа-цивилизация: Автореф.дисс. ... доктора филол. наук. – Москва: 2010. – 43 с.

⁷ Жумаева С. Ч. Хайвонлар ҳақидаги зрактларнинг генетик асослари ва спецификаси: Филол. ф. ном. дисс. Автореф. – Toshkent, 1996. – 25 б.; Ашурова Ш.А. Инглиззабон ғарб адабиёти ва ўзбек адабиётида анималистика жанри хусусиятлари (Эрнст Сетон-Томпсон ва Н.Норқобилов ижоди мисолида): Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Toshkent, 2020. – 47 б.; Djurakulova E. S. Shoyim Bo‘tayev romanlarida sujet va kompozitsion yaxlitlik. Filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) diss. ... aftoreferati. – Samarqand, 2023. – 51 b; Xoldarov D.E. Hozirgi o‘zbek qissalarida badiiy uslub muammosi (Shoyim Bo‘tayev va Nazar Eshonqul qissalari misolida). Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. ... avtoref. – Toshkent, 2017. – 53 b.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy kuzatishning qiyosiy nazariy tahlili hamda ilmiy izohlash usullari, tarixiy-genetik, tarixiy-madaniy, muammoli, qiyosiy-tipologik, psixologik va qisman biografik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Qiyomat” va “Qo‘rg‘onlangan oy” asarlarida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-falsafiy tahlili asosida ularning shaxs ma’naviy olamini takomillashtirish jarayoni bilan uzviy bog‘liqligi aniqlangan;

zamonaviy qirg‘iz va o‘zbek nasrida ijtimoiy-falsafiy romanning nazariy jihatlari asoslangan, syujet va uslub xususiyatlari, mualliflar estetikasi, shuningdek, tarixiy-ijtimoiy omillarning asarlarning badiiy konsepsiyasiga ta’siri ochib berilgan;

milliy an’analar, axloqiy qarashlar va badiiy obrazlar evolyutsiyasini chuqur o‘rganish natijasida mustaqillik davri romannavislari ijodida modern va postmodern unsurlarining o‘rni aniqlangan;

roman qahramonlarining axloqiy-ma’naviy mezonlari kengayib borayotgani, ularning ijtimoiy-axloqiy va estetik qarashlari milliy an’analar bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanishi ilmiy asosda isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari qiyosiy adabiyotshunoslik, komparativistika va tarjimashunoslik sohalarini rivojlantirishdan iborat bo‘lib, mustaqillik davri qirg‘iz va o‘zbek nasri adabiy an’analarini tahlil qilishning takomillashtirilgan ilmiy-nazariy asoslarini yaratishni taklif etadi. Tadqiqot xulosalari adabiyot nazariyasi va milliy romanchilik bo‘yicha darsliklar, metodik qo‘llanmalar va ilmiy monografiyalar yaratishda xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari qirg‘iz va o‘zbek adabiyoti namunalarini tarjima qilish va adaptatsiya jarayonlarida ham foydalanilishi, turkiy tilli xalqlar adabiyotini chuqurroq o‘rganish, madaniy aloqalar va adabiy munosabatlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqot xulosalari ta’lim jarayonida ham amaliy ahamiyat kasb etib, ko‘p millatli turkiy tilli nasr haqidagi bilimlarni va uning ijtimoiy ahamiyatini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi badiiy adabiyot tadqiqiga bag‘ishlangan monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar va tematik izlanishlar tahlili asosida muammoning aniq belgilanganligi bilan ifodalanadi. Xulosalarning asoslilikligi o‘rganilayotgan materiallarni xolis baholash imkonini beradigan qiyosiy-taqqoslash tahlil usulini qo‘llash orqali ta’minlangan. Olingan natijalarning ishonchliligi tadqiqotning aniq yo‘naltirilganligi, metodologiyaning ilmiy asosda tanlanishi va qo‘llanilayotgan usullarning tadqiqot mohiyatiga mos kelishi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy qirg‘iz va o‘zbek yozuvchilari ijodiy merosining chuqur qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili, ularning badiiy uslubi, tasvir va talqin usullarini o‘rganishda namoyon bo‘ladi. Mualliflik uslubining o‘ziga xosligi va originalligini aniqlash adabiyotshunoslik va milliy adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish sohasida nazariy bazaning kengayishiga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot badiiy adabiyotni tahlil qilish bo‘yicha ilmiy-metodologik tamoyillarni shakllantirishga

yordam beradi va adabiyot nazariyasi hamda komparativistika rivojiga hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularni umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida qo'llash imkoniyati bilan belgilanadi. Ushbu tadqiqot adabiyotshunoslik, komparativistika, qiyosiy tilshunoslik va tarjima nazariyasi fanlari bo'yicha o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini tayyorlashda asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalari romanchilik, uning nazariy asoslari va badiiy asarlarni tahlil qilish metodologiyasini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarda ham foydalanish uchun manba bo'la oladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy adabiyotda hayvonot dunyosi mavzusini tadqiq qilish va ijtimoiy muammolarni talqin qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar quyidagicha amaliyotga joriy etilgan:

“Qiyomat” va “Qo'rg'onlangan oy” asarlari misolida inson va tabiat munosabatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili amalga oshirilib, ekogumanizm jarayoni shaxs ma'naviyatini takomillashtirish bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlanganiga doir dissertatsiya xulosalari Samarqand davlat chet tillar institutida 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan «English Access Microscholarship Program» nomli loyiha doirasida tadbiiq etilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 7-dekabrda 2697/02-son ma'lumotnomasi). Natijada foydalanilgan materiallar tahlil qilinayotgan romanlardagi animalistik personajlar ko'pincha odamlarning o'zlariga qaraganda ko'proq insoniy xususiyatlarga ega ekanligini ochib bergan, bu esa ularning asarlarning badiiy tuzilishida muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi;

zamonaviy qirg'iz va o'zbek nasridagi ijtimoiy-falsafiy romanlarning nazariy masalalari, syujet va uslub xususiyatlari, mualliflar estetikasi hamda tarixiy-ijtimoiy omillarning asarlar badiiy konsepsiyasiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilganligi haqidagi ilmiy xulosalardan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus+ dasturining 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: “O'zbekistonda Oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli loyihasi doirasida foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 14-dekabrda 2764/02-son ma'lumotnomasi). Natijada Chingiz Aytmatov va Shoyim Bo'tayev o'z romanlarida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni badiiy-falsafiy saviyada idrok eta olganliklari, yozuvchilarning ekogumanizm g'oyalarini targ'ib qilish uchun zamin yaratilgan;

mustaqillik davri adabiyotida milliy an'analar, axloqiy qarashlar va badiiy obrazlar evolyutsiyasi chuqur tahlil qilinib, romannavislar ijodidagi modern va postmodern elementlarining o'rni aniqlanganiga doir xulosalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyat hududiy bo'linmasi qoshidagi «Sadoqat» ijodiy to'garagi tomonidan o'tkazilgan seminarda foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2023-yil 27-iyuldagi 38-son ma'lumotnomasi). Natijada adiblarning inson va tabiat tushunchasining obrazli ko'rinishi bo'lgan adabiy-estetik qarashlari keng kitobxonlar e'tiboriga

yetkazilgan;

roman qahramonlarining axloqiy-ma'naviy ko'lami, ijtimoiy-ma'naviy va estetik qarashlari kengayib, milliy an'analar bilan bog'liqlikda shakllangani isbotlanganiga oid xulosalaridan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan SUZ_800_21GR-381 "Reinforcing English Language competence at Karshi State University" nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 14-dekabrda 04/3755-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha mazmuni Chingiz Aytmatov va Shoyim Bo'tayev ijodidagi badiiy nutq, individual uslub va qahramon xarakteriga oid materiallar bilan boyitilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy maqola, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, shundan 7 tasi respublika, 5 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 132 bet bosma matndan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti va materiali aniqlangan; tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ifodalangan; olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, joriylanishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Badiiy asarda ijtimoiy masalalar ifodasida Ch. Aytmatov mahorati**" deb nomlanib, uch faslni o'z ichiga oladi. "**Qirg'iz-o'zbek adabiy aloqalari: an'ana va o'zaro ta'sir, ijtimoiy muammolar talqini**" deb nomlangan birinchi faslda Ch.Aytmatovning O'zbekistonning bir qator yozuvchilari ijodiga ta'sirini o'rganish bo'yicha qiziqarli fikrlar keltirilgan. Z.I.Mirzayevaning "Chingiz Aytmatov va o'zbek adabiyoti" (2018) nomli maqolasida muallifning o'zbek adabiyotiga ta'siri ilk bor tahlil qilingan. Hatto taniqli iste'dodli yozuvchilardan biri Nurali Qobil ham "Bolalikning tiniq osmoni" hikoyasi "Oq kema"ning ikkinchi ko'rinishi bo'lganini e'tirof etgan⁸. O'zbek va qirg'iz xalqlari o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlash, adabiy-

⁸ Мирзаева З. И. Чингиз Айтматов и узбекская литература // Возрождение национальных литератур во второй половине XX века и Чингиз Айтматов (сборник материалов Международной научно-практической конференции). Составители Ф.Х. Миннуллина, А.Ф. Ганиева, Л.Р. Надыршина. – Казань. Издательство: Институт языка, литературы и искусства им. Г. Ибрагимова. 12 декабря, 2018. – С. 164-168.

madaniy aloqalarni rivojlantirishga Tursunboy Adashboyev katta hissa qo'shdi. Mashhur bolalar yozuvchisi qirg'iz tilini chuqur bilgani uchun shoir Mirtemirning nazariga tushgan va "Manas" dostonining tarjimonlaridan biri bo'lib, o'zbek kitobxonlari orasida tarqalishiga sababchi bo'lgan. Taniqli o'zbek yozuvchilari Said Ahmad, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, yangi avlod vakillari O'tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayev, Uchqun Nazarov, O'lmas Umarbekov va boshqalar bir ovozdan Chingiz Aytmatovni bugungi kunning global muammolarini ko'tarib chiqqan, butun insoniyat taqdiri haqida qayg'urgan buyuk so'z san'atkori sifatida e'tirof etdilar. 1960-yillar O'zbekistonda o'zbek kitobxonlarining Chingiz Aytmatovning dastlabki hikoya va qissalari bilan faol tanishish o'n yilligi bo'ldi. Bu davrda yozuvchining o'ziga xos badiiy olamini shakllantirgan "tog" va "dashtlar", tabiiy muhit qahramonlari tahliliga ko'proq e'tibor qaratildi. Tanqidiy maqolalarning aksariyati taqriz xarakterida bo'lib, Aytmatovning yozuvchilik iste'dodini ochib berdi. Xuddi shu davrda uning asarlarining o'zbek tiliga tarjimalari bo'yicha dastlabki tadqiqotlar, shuningdek, "Momo er," "Birinchi o'qituvchi," "Alvido, Gulsari" va boshqa qissalarning adabiy tahlili paydo bo'ldi.

O'zbek adabiyotshunosligida N.V.Gogol va A.P.Chexovning A.Qahhorga, V.Mayakovskiyning G'.G'ulomga, M.Gorkiyning Oybekka samarali ta'siri qayta-qayta qayd etilgan. Ma'lumki, A.Qahhor M.Sholoxov ijodiy tajribasini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan. Qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning O.Yoqubov, A.Muxtor, P.Qodirov, Shuhrat, T.To'la, O'.Umarbekov, Sh.Xolmirzayev, O'.Hoshimov, N.Qobil, Sh.Bo'tayev kabi o'zbek adiblari ijodiga g'oyaviy-badiiy ta'siri sezilarli darajada kuzatiladi, ular adib ijodiy tajribasini o'zlashtirishga intilganlar. Zamonaviy o'zbek adabiyotining O. Yoqubov, O'.Hoshimov, X.Do'stmuhammad, E.A'zam, X.Sulton, T.Murod kabi nosirlari, T.Mirzo, A.Samad, O'.Umarbekov, Shukrullo kabi dramaturglari ana shunday yozuvchilar sirasidan bo'lib, ular insonparvarlik kabi o'zbek adabiyotining muhim sifatini saqlab qoldi va yangi asrning yangi o'n yilligiga yetkazib berdilar⁹. Nurali Qobulovning ijodiy izlanishlarini Chingiz Aytmatov tajribasini hisobga olmasdan tushuntirish qiyin. Qirg'iz adibining qahramonlar psixologik holatini, dramatik voqealarning shiddatini, insonparvarlik haqidagi yuksak g'oyalarni o'quvchiga yetkaza olish mahorati ko'p jihatdan O.Yoqubov ijodiga, jumladan, uning so'nggi "Vijdon" romaniga ham xosdir¹⁰. Qirg'iz tanqidchisi A. Akmataliyev Murod Muhammad Do'stning "Galatepaga qaytish" qissasini Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romani bilan birgalikda sahnalashtirgan¹¹. O'zbek munaqqidi U.Normatov A.Muxtorning "Chinor" va Ch.Aytmatovning "Oq kema" asarlarini qiyosiy o'rganib, shunday xulosaga keladi: "Mualliflar afsonalarga nafaqat go'zal shakl berish yoki tajriba uchungina emas, balki chuqur milliy maqsadni ochib berish uchun ham murojaat qiladilar". Asqad Muxtorning "Chinor" ramzli hikoya-romanida mifostrukturalarning (hikoyatlar, rivoyatlar, arxetipik obrazlar – bola, chol, daraxt) kiritilishi syujetning ko'p bosqichli qurilish tizimida, shuningdek,

⁹ Гарипова Г. Концептуальные тенденции развития узбекской литературы конца XX – начала XXI века // Звезда Востока, 2012. № 2. С. 130 – 136.

¹⁰ Кошчанов М. Единство и многообразие // Звезда Востока, 1983. №4. – С. 24-28.

¹¹ Акматалиев А. Чингиз Айтматов и взаимосвязи литератур. – Бишкек, 1991. – 184 с.

roman badiiy-falsafiy konsepsiyasining “dunyo daraxti” arxetipik obraziga g‘oyaviy jamlanishida amalga oshirilgan. Yozuvchi inson va dunyo muammosini realistik tarzda tasvirlaydi. Afsonalar, rivoyatlar, qo‘shiqlar, marsiyalar Chingiz Aytmatovning barcha asarlarida uchraydi va bu bejiz emas: u qirg‘izlarning qadimiy madaniyati markazi hisoblangan Talasda tug‘ilib o‘sgan. Qirg‘izlar O‘rta Osiyoning eng qadimiy xalqlaridan biridir. Ularning epik madaniyati nihoyatda yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilgan. Turli tarixiy sharoitlarda (yozuv va tasviriy san‘atning yo‘qligi, o‘z erkinligi va mustaqilligi uchun kuchli feodal davlatlar bilan doimiy kurash olib borishi) ko‘chmanchi xalqning uzoq vaqt yashashi, uning yuksak poetik iste‘dodga ega bo‘lishi doston janrining vujudga kelishi va gullab-yashnashiga sabab bo‘lgan. Boshqa ko‘plab xalqlar tarix tasvirlarida, badiiy adabiyotda, teatrdan, san‘at galereyalarida, haykaltaroshlikda tasvirlanganlarini qirg‘iz xalqi o‘z dostonlariga kiritgan¹².

Qirg‘iz va o‘zbek adabiyotini o‘rganish boshqa millat o‘quvchilariga davlat tilini, etnik guruh tarixini, yashayotgan mamlakatning madaniy an‘analarini, tub aholining an‘ana va urf-odatlarini o‘rganishga yordam beradi va ularda vatanparvarlik, istiqomat qilayotgan yurtga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishga hissa qo‘shadi. O‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy jihatdan boyitish bilan birga millatlararo munosabatlarni tartibga soladi. Ikki xalqning an‘anaviy yashash va turmush namunalarini qiyoslash, badiiy asarlarni o‘rganish orqali dunyoqarashini kengaytiradi. Eng muhimi, badiiy adabiyot asarlari orqali har birimizda tub aholi tiliga hurmat tuyg‘usi tarbiyalanadi¹³. O‘zbek adabiyotida milliy mentalitetni yaqqol ifoda etgan badiiy asarlar yaratish o‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab ustuvor vazifaga aylandi. Qirg‘iz va o‘zbek xalqlari asrlar davomida qo‘shnichilikda yashab kelmoqda, din, yaqin qardosh tillar, turmush tarzi kabi ko‘p mushtarak jihatlari bor. Binobarin, adabiy asarlar yaratiladigan ijtimoiy muhit nuqtai nazaridan ham, mazmun va g‘oyaviy-tematik jihatdan ham bu ikki etnik guruh o‘rtasida ko‘p umumiyliklar mavjud.

Qirg‘izlarning qahramonlik dostonlari ichida “Manas” o‘zining qadimiyligi va ko‘lami bilan ajralib turadi. Mashhur shoir Mirtemir tomonidan doston o‘zbek tiliga tarjima qilinishi jarayonida Chingiz Aytmatov – boshqa qirg‘iz yozuvchilari bilan birgalikda – unga bir qancha chinakam bebaho maslahatlar beradi. U “Manas” tarjimasini tugallangach, shunday degan edi: “Bu yirik va murakkab asarga qanchalik ta’sirli, qanchalik chuqur munosabat bildirganini hayajonsiz eslay olmayman... (tarjimon – A.A.). Dostonning o‘zbek tiliga tarjimasini monolit, koloritli bo‘lib, “Manas”ning buyuk genial asliyatiga mos keladi¹⁴. Manasshunoslikning fan sifatida rivojlanishida V.Jirmunskiy, M.Avezov, B.Yunusaliyev, A.Bernshtam, P.Berkov, S.Abramzon, P.Falev, V.Vinogradov va boshqa sho‘ro olimlari va yozuvchilarining asarlari shakl-shubhasiz boylikka aylandi¹⁵. Garchi “Manas” dostoni qahramonlik eposi sifatida tasniflangan bo‘lsa-da, aslida bu doston fojia bo‘lib, unga chuqur izzat singib ketgan. «Manas»

¹² Айтматов Ч. Статьи, выступления, диалоги, интервью. – Москва, 1988. – С. 14.

¹³ Байтикова Б. Б. Из истории преподавания кыргызской литературы в школах с узбекским языком обучения //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2016, №5. – С. 7-9.

¹⁴ Акматалиев А. Чингиз Айтматов: Человек и Вселенная. – Бишкек: Илим, 2013. – С. 325.

¹⁵ Бакчиев Т.А. Введение в манасоведение (краткий курс лекций). – Бишкек: Техник, 2008. – 104 с.

dostonining fojiali yakuni biz uchun saboq, ogohlantirish bo'lishi kerakligini Chingiz Aytmatov qayta-qayta ta'kidlagan. "Manas" ma'naviy quroldir¹⁶, deya ta'kidlagan. O'zbek adabiyotida "Alpomish" ana shunday qahramonlik dostoni sanaladi. Bu dostonlarda qahramonlarning o'xshash g'oyalari, orzu-umidlarini ko'rish mumkin. Bunday o'xshash elementlarni qirg'iz olimlari ham payqashgan¹⁷. O'zbek va qirg'iz adabiyotini o'rganishda umumiy va milliy-o'ziga xos tushunchalarni hisobga olish zarur. Adabiyotshunoslikka oid tushunchalarni va adabiyot nazariyasini o'rganish ham shu tamoyil asosida olib boriladi. Qirg'iz va o'zbek adabiyotining etnomadaniy xususiyatlari kitobxonlarga tarix, madaniyat, an'analar va urf-odatlar, turmush tarzi, tabiat go'zalligi, tarixiy va mashhur shaxslar bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Bobning ikkinchi fasli **"Chingiz Aytmatov ijodining badiiy-estetik tamoyillari va uning jahon adabiyotshunosligidagi retsepsiyasi"** deb nomlanib, ushbu faslda yozuvchining asarlari asosiy mazmuni tahlil qilinib, personajlar obrazlari orqali inson fazilatlarining aks etishi o'rganiladi. Zamonaviy dunyo adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Chingiz Aytmatov insoniyat uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni yoritib, yer yuzining har bir aholisini tashvishga solayotgan muhim masalalarni ochib beradi. Aytmatov bu jiddiy va dolzarb muammolarni o'zining ona yurti – Qirg'iziston voqeligi materiallari asosida badiiy tadqiq etadi. Yozuvchining asarlarida ezgulik va yovuzlik, hayot va o'lim, muhabbat va nafrat, sharaf va sharmandalik, xotira va unutilganlik kabi abadiy masalalar o'zining badiiy ifodasini topadi. Ch.Aytmatovning barcha asarlarida go'zallik, muhabbat va ezgulik o'zaro uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Chingiz Aytmatov tasavvurida inson go'zallikni nozik his etadigan, haqiqiy va fidokorona sevishni bilgan, ezgulikni qadrlab, uni yaratishga qodir bo'lgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Uning maqsadi – o'z asarlari orqali inson mavjudligining eng muhim savollariga javob berishdir. Yozuvchi har bir asarida "Inson kim? U qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak? U qanday qadriyatlarga xizmat qilishi lozim, shundagina u "Inson" degan sharaflı nomga loyiq bo'ladi?" kabi umuminsoniy savollarga javob topishga intiladi. Vaqt va avlodlar oldidagi mas'uliyat g'oyasi Chingiz Aytmatov estetikasining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

O'tmish xotirasini unutgan va o'z o'rnini qayta belgilash zarurati oldida qolgan inson tarixiy tajribadan mahrum bo'lib, faqatgina bugungi kun bilan yashashga mahkum bo'ladi. Qirg'iz yozuvchisining asarlari milliy voqelikni chuqurroq badiiy tasvirlashga yordam beradi. U o'z ijodi orqali milliy qadriyatlarga yanada chuqurroq kirib borish, xalq og'zaki ijodi va epik hikoyalar an'analarini tiklashga intiladi.

Ch.Aytmatov voqelik estetikasini murakkab ravishda his etishga, hatto hayotdagi mayda tafsilotlarni katta falsafa doirasida qabul qilishga, voqealarni

¹⁶ Кирпичное мироздание или энергия мифа // "Манас" – эпос океан [Текст] / Сост. А. Акматалиев. – Бишкек: Илим, 1994. – С. 47.

¹⁷ Ишниёзова Ш. Ҳозирги замон ўзбек ва қирғиз насрида афсона ва ривоятларнинг қиёсий типологик таҳлили (Сравнительный типологический анализ легенд и повестей в современной узбекской и киргизской прозе). Дис...канд.филол.наук. – Самарканд, 1996. – 142 с.

ijtimoiy mazmunga ko'tarishga o'rgatadi. Uning estetikasi – san'atning tabiati va ijtimoiy maqsadi, badiiy mahorat va yozuvchining samimiyligi, asar mazmuni va shakli kabi turli jihatlar bo'yicha o'ziga xos qarashlar tizimini tashkil etadi.

Uchinchi fasl **“Chingiz Aytmatovning gumanistik g'oyalari”** deb nomlanib, unda yozuvchining ijodiy merosi tahlil qilinadi, u esa axloqiy-etik muammolar bilan chambarchas bog'langan badiiy dunyoviy tasvirni o'z ichiga oladi. Aytmatov asarlarida insoniyat rioya qilishi kerak bo'lgan axloqiy-etik me'yorlar izchil ravishda aks etadi. Yozuvchining butun ijodi davomida inson psixologiyasi, tafakkuri va ma'naviy-axloqiy qarashlarini yagona mualliflik konsepsiyasi asosida shakllantirgani ko'zga tashlanadi. Bu konsepsiya esa yuksak umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi.

Adabiyotshunos V.Korkinning ta'kidlashicha, Aytmatov ijodida ajoyib tarix tuyg'usi uyg'onadi, o'lmas xalq – tinchlikparvar xalqning davr va ishlariga daxldorlik, uning dardi va shodligi uyg'onadi. Uning qahramonlari timsoli bo'lgan qadr-qimmat – bu yerdagi mehnatkashlarning, hamma uchun baxtni orzu qilganlarning qadr-qimmat. Hayotning mazmuniga aylangan bu orzuning ishtiyoqi esa oddiy odamni yulduzlarni kashf etgan odam bilan tenglashtiradi. Aytmatovning zamonaviyligi uning kelajakka intilayotgan inson dunyoqarashini yetkazishida yaqqol namoyon bo'ladi. Ko'pincha azobda, tashvishda, azob-uqubatlarni yengib, farzandlariga etkazish uchun qalbida qadrlı narsa – qo'shiq, hikmatli so'z, go'zal sevgini o'stiradigan odam¹⁸.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Qiyomat” va “Qo'rg'onlangan oy” romanlarining g'oyaviy majmui: hayvonlar iztiroblari fonida insoniy muammolar”** deb nomlanadi. Ikkinchi bob uch fasldan iborat. Bobning birinchi fasli **“XX asr o'zbek adabiyotida hayvonot olami mavzusi va ijtimoiy muammolar talqini”** deb nomlanib, unda o'zbek adabiyotida animalistika janri tadqiq etiladi. XX asrda insonning hayvonot olamiga nisbatan shafqatsiz munosabati muammosini o'z asarlarida ochib bergan o'zbek yozuvchilari orasida Normurod Norqobilov¹⁹, Shukur Xolmirzayev, Shoyim Bo'tayev va Luqmon Burixon kabi adiblarning ijodiy faoliyati alohida o'rganiladi. Shoyim Bo'tayev va Normurod Norqobilov asarlarida tahliliy uslub yetakchi ahamiyat kasb etadi²⁰. Ularning har bir asari o'ziga xos olamni o'z ichiga olib, insonni shaxsiy tafakkuri, ichki ziddiyatlari va ularning sabablarini anglab yetishga chorlaydi.

Zamonaviy o'zbek prozasida N. Norqobilov ijodi hayvonot olamiga bag'ishlangan hikoya va qissalarga boy²¹. Yozuvchining asarlarini diqqat bilan o'rganish shuni ko'rsatadiki, uning hikoya va romanlari o'z mazmun-mohiyati bilan o'zbek xalq folklori, Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” to'plamidagi qadimiy turkiy qo'shiqlar hamda Alisher Navoiy, Bobur va Gulxaniy ijodiga yaqindir. N.Norqobilov hikoyalari mavzularining keng qamrovliligi, ta'sirchanligi va hayvonot olamining noyob xususiyatlarini yorqin aks ettirishi bilan ajralib turadi. Adib o'z hikoyalarida ezgulik va yovuzlik to'qnashuvi orqali

¹⁸ Коркин В. Человеку о человеке. Заметки о творчестве Ч. Айтматова. – Фрунзе, 1974. – 97 с.

¹⁹ Базаров С.Б. Normurod Norqobilov asarlarining poetikasi: Filol. fanlari b'uyicha falsafa doktori (PhD) ... diss. – Jizzax, 2021. – B. 136.

²⁰ Раджапова Ф. А. Истиклол даври ўзбек кссачилигида услуб ва поэтик тил: Филол. fanlari b'uyicha falsafa doktori (Phd) diss. автореф. – Тошкент: Fan va ta'lim, 2018. – B. 52.

²¹ <https://arboblar.uz/ru/people/norkobilov-normurod>

inson xarakterining asosiy xususiyatlarini, dunyoqarashini, umuman tabiatga, har bir jonivorga alohida e'tiborli bo'lish zarurligi g'oyasini mahorat bilan ochib beradi. "Oqbo'yin", "Paxmoq", "Changalzor iti", "Ovul oralagan bo'ri", "Qorabo'ri" hikoyalarida tabiat va hayvonlar mavzusini yaqqol ko'rish mumkin. "Paxmoq" hikoyasining asosiy g'oyasi tabiiy ofatlarga olib keladigan tabiat qonunlarini buzishdir. Bu hikoyada tabiat, odam va hayvonot dunyosi tasvirlari haqiqiy obrazga aylandi. Odamlar va hayvonlar o'rtasidagi munosabatlar orqali hikoyalar inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar muammosini izlaydi. Yozuvchining hikoyalaridagi hayvonlarni odamlarga, odamlarni hayvonlarga qiyoslash mumkin.

Bobning ikkinchi fasli **"Qiyomat" va "Qo'rg'onlangan oy" romanlarining kompozitsiyasi va g'oyaviy mazmunining umumiy va o'ziga xos xususiyatlari** deb nomlanadi.

Yozuvchilarning dunyoqarashi, ijodiy uslubini taqqoslash va tahlil qilishga nisbatan ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari XX asrning hukmron mafkurasi ta'sirida shakllangan. Ushbu asr boshidagi notinch voqealar va undan keyingi mafkuraviy senzura O'rta Osiyo ijtimoiy taraqqiyotining bu davrdagi mohiyatini belgilab bergan. O'zlarining bebaho asarlarida adabiy-estetik va nazariy tamoyillarini bayon qilib, buyuk Ch. Aytmatov ham, uning iste'dodli izdoshi Sh.Bo'tayev ham o'z oldilariga zamonaviy jamiyatni o'ziga xos ijtimoiy qarama-qarshiliklari bilan taqdim etadigan qahramon va personajlarning ichki dunyosi, hissiy kechinmalarini mubolag'asiz tasvirlab berishdek real vazifani qo'yanlar va zamonaviy yozuvchilar adabiyotning soddaroq va haqqoniyroq janriga «oldinga bir qadam» tashlashlari kerakligiga ishonch hosil qilishgan.

Ch.Aytmatov ijodiga bag'ishlangan ulkan tadqiqotlarga qaramay²², biz uning "Qiyomat" romani va "Oq kema" qissasini Sh.Bo'tayevning "Qo'rg'onlangan oy" romani bilan qiyosiy tahlil qilib ko'ramiz. Romanlarda quyidagi muammolarni ko'rib chiqish mumkin:

I. Ekologik muammolar. 1. "Qiyomat" romanida sayg'oqlarning o'limi: *"Sayg'oqlar go'sht topshirish rejasini to'ldirish uchun kerak, "aniqlovchi yil"ning so'nggi choragi oxirida viloyat uchun juda murakkab vaziyat yuzaga keldi..." besh yillik reja bilan chiqilmadi" va viloyat hokimligidan pachaqlangan kimdir to'satdan "Mo'yunqumlarning go'sht resurslarini "jalb qilishni" taklif qildi... Ularni so'yilgan hayvonning nimalangan go'shtlarini terimchilar joyida, qulochkashlab, bo'g'ziga pichoq urib, so'yishgan, va, oyoqlari bilan tebratib ko'rib, tirishib-tortishib titraganlarini, yarim o'lik holda, yuk mashinalarining o'grachalariga tashlashgan. Boshdan oyoq qonga belangan kiyimdagi bu odamlarga qarash dahshatli edi.* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 29-b.).

2. Sh.Bo'tayevning «Qo'rg'onlangan oy» romanida sayg'oqlarning o'limi:
- *Hammasini abjag'ini chiqarib yuborishimizga bir bahya goldi-ya, keyin kooperativchilar pulga tugul tekingayam olishmasdi, - shunday deya, Murtazo pastga sakrab tushdi. Ibrohim ham uning ortidan pastga tushdi. Mashinaning chirog'i yorug'ida bo'lib o'tgan hodisaning natijasini aniq-tiniq ko'rarkan, uning*

²² Бобоалиева З.П. Творчество Чингиза Айтматова в контексте таджикско-киргизских литературных связей (проблемы перевода): Дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, ТНИ, 2016. – 175 с.; Исакбаева З.Т. Художественная аксиология в романах Ч.Айтматова: Автореф. дисс. канд. фил. наук. – Бишкек, 2021. – 30 с.

o'takasi yorilayozdi. U bunday bo'lishi mumkinligini xayoliga ham keltirmagandek edi. Mashinaga o'rnatilgan temir quvur mashina chiroqlariga o'zlarini urib, uning oldidan kesib o'tmoqchi bo'lgan sayg'oqlarni chalg'i kabi o'rib tashlagandek edi. Sayg'oqlarning ba'zilari oqsoqlana - oqsoqlana qochib qolishga harakat qilishar, ba'zilari to'rttala oyog'idan aqalli birortasiniyam qimirlata olmay ontarilgan ko'yi yotardi. Murtazo mashinadan tusha solib hech narsaga qaramay, ularning bo'g'ziga pichoq tortish bilan ovora edi (Sh.Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, 228-b.);

3. Mo'yunqum qurshovidagi sayg'oqlar qirg'inida bo'ri bolalarining o'limi: *"...ana Kattabosh, ana Chopqiroyoq va juda bo'shangan Sevimli (Lyubimitsa) esa, zo'rg'a turib, arang ulguryapti, ular bilan birga u ham sarosimali yugurishda – Mo'yunqumlarning momaqaldirog'i, uning Toshchaynari... Sevimli birinchi bo'lib nobud bo'ldi. U podaning oyog'i ostiga yiqildi, faqat ang-ang chinqirig'i yangradi, tuyoqlarning taqirlashidan u bir zumda eshitilmay qoldi... Nimadir oyoqlarga qattiq urildi, urg'ochi bo'ri ag'darilib tushdi, lekin oyoq ostida qolib ketmaslik uchun darhol o'rnidan sakrab turdi va keyingi lahzada yugurib ketayotganda otib yarador qilingan to'ng'ichlarining eng kattasi, Kattaboshning havoga qanday baland ko'tarilganini, uning qanday qilib, qonga botgan holda, sekin pastga yiqilganini, sekin yon tomonga tashlanib, cho'zilib yotganini, panjalarini silkitib, ehtimol, og'riqdan qichqirib yuborganini, balki o'lim faryodini chiqarganini ko'rdi, lekin u hech narsani eshitmadi, shisha ko'zliklardagi shaxs esa miltig'ini boshi ustida g'olibona silkitdi va keyingi lahzada Akbara endi Kattaboshning jonsiz tanasi ustidan sakrab o'tdi..."* (Ch. Aytmatov, Qiyomat, 27-b.).

4. "Qiyomat" romanidagi yong'in paytida ko'l bo'yidagi qamishzorda yonib ketgan bo'ri bolalarining o'limi: *"Bu joylarda kon-rudani ochiq usulda qazib olish uchun shoxobcha yo'llari qurildi – qamishlarni yoqib yuborish kerak bo'ldi. Aldash ko'li atrofidagi yuzlab va minglab gektarlarda esa qadimiy qamishlar yo'q qilindi... olov ularni har tomondan o'rab oldi, faqat suzish orqali qutulish mumkin edi. Va uch nafar bolasini olovda qoldirib, Akbara va Toshchaynar qolgan ikkitasini og'zida tishlab, ko'rfaz bo'ylab suzib o'tib, ularni qutqarmoqchi bo'lishdi. Nihoyat, bo'rilar qarama-qarshi qirg'oqqa yetib kelishganida, ikkala bolasi ham, bo'rilar ularni qanchalik baland tutishga urinmasin, bo'g'ilib qolgani ma'lum bo'ldi"* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 203-b.).

Bu motivni Sh. Bo'tayevning "Qo'rg'onlangan oy" romanidagi bo'ri bolalarining o'limi tasvirida ham ko'rish mumkin: *"Unga alam qilgani o'sha o'zi bilgan qamishzorning tuyqusdan alanga ichida qolgani-yu hash-pash deguncha bo'lmay, kulga aylanib ulgurgani edi. Shu-shu bo'ldi-yu Yolg'iz Qoraboshga yashashning ma'nisi qolmadi, harqalay, omonat go'sha, esa-da, u shu qamishzordagi uyasida urg'ochi bo'ri bilan o'z isini qoldirdi... Qamishzorga o't ketgani tasodifmi yoki atay qilinganmi buni odamlargina bilishi mumkin edi... O'shanda Yolg'iz Qorabosh bo'rivachchalarning og'ziga ilingulik biron narsa topish ilinjida o'zi bilmagan holda olislab ketgan..."* (Sh.Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, 77-b.). Bu ham yana odamlar tomonidan amalga oshirilgan.

5. Sh.Bo'tayevning "Qo'rg'onlangan oy" romanida antilopalarning o'limi va shaxsiy manfaat uchun sotilishi: *"Hozirgi tog'begi shu ketishda bo'lsa tog'niyam*

yutib yuvoradi. Endi-endi Rangontog' etaklarida ko'rinayotgan oq bo'kanlarning ham tag'in izini topolmay qolamiz... O'rtaqaynarliklar ham, boshqaynarliklar ham tog'begidan har bitta oq bo'kanni yigirma-yigirma besh so'mdan sotib olishyapti. - Hali shunaqami? Mana sizga, odamga ishonishning oqibati!" (Sh.Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, 95-b.). Buni ochko'zlik deb atash mumkin. Chingiz Aytmatov va Shoyim Bo'tayev o'z romanlarida oddiy haqiqatni ko'rsatadilarki, inson tabiatga tegmaguniga qadar, tabiat unga yordam bergan, rizq bergan, ammo bu muvozanatni insonning o'zi buzgan. Bu hukmni Sh.Bo'tayevning "Qo'rg'onlangan oy" romani misolida ochib beramiz: «Murtazo bugun xursand holda uyga qaytdi. Uning anchadan buyon ko'zlab yurgan ovi o'ngidan kelgandi. U erkak sayg'oqni otgandi. Hamrobay Murtazoga sababini aytmagan bo'lsa-da, mana shunaqa sayg'oqning boshini keltirsang, aytgan pulingni beraman, degandi... Mana kallasi, shoxini o'zingiz chopib olasiz" (Sh.Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, 246-b.). Murtazoning tabiatiga bo'lgan bu shafqatsizligi va aqlsiz munosabati uning uchun falokatga aylandi. Hayvonlarni o'ldirish bilan biz birinchi navbatda o'zimizni o'ldiramiz: "–Tunda qo'yxonaga bo'ri tushibdi, dedi O'rozmat aka. – Bo'ri -i?! – Murtazoning ko'z o'ngida darhol kecha tunda do'nlikda bamaylixotir o'tirgan bo'ri gavdalandi. –Tomni teshib tushibdi, qo'ylarni bo'g'izlab ketibdi, – dedi O'rozmat aka» (Sh.Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, 253-b.). Ch.Aytmatovning "Oq kema" qissasi voqeasi qo'riqxonada hududidagi o'rmon kordonida, Sh.Bo'tayevning "Qo'rg'onlangan oy" romani voqeasi esa qishloq va qo'riqxonada hududida bo'lib o'tadi. Bu inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar muammosini yanada ko'proq ochib beradi, chunki tabiat himoya qilinishi kerak bo'lgan joyda, tabiat olami vayron bo'lishni boshlaydi. Bu Mo'minning tilidan shunday keltiriladi: – Qo'riqxonalariga aylantirilgan, ko'ryapsanmi, - o'zini katta tutib, xo'jainlarga o'xshab javob berdi O'rozqul. – Dovon ortidan, narigi tomondan kelishgan. Qo'rqmaydilarimi? Qo'rqmaganlar, ular qo'rqishmaydi. – Oh, hozir miltiq bo'lsaydi! – birdan o'ylamasdan gapirdi Saidahmat. Shu paytgacha tortinchoqlik bilan bir chetda turgan Mo'mun chidab tura olmadi: – Nima deyapsan, Saidahmat. Ularni ovlash taqiqlangan (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 333-b.).

II. Ijtimoiy-siyosiy muammolar. Sh.Bo'tayevning "Qo'rg'onlangan oy" romanining ijtimoiy muammolari o'zbek xalqining 80-yillardagi tarixiy taraqqiyoti masalalari ahloqiy, ekologik va boshqa xarakterdagi muammolar majmuasi bilan uzviy bog'liqdir. Yozuvchilar o'z romanlarida xotira haqida, insonning jamiyatdagi o'rni haqida, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar haqida, har bir kishining butun dunyo oldidagi mas'uliyati haqida, kelajak haqida va o'zining hozirgi va o'tmishdagi xatolarini tuzatmagan inson duch keladigan oqibatlar haqida gapiradilar. Inson va tabiat to'qnashuvi, ya'ni tabiat va inson qarama-qarshiligi mavzusi Ch.Aytmatovning "Qiyomat" va Sh.Bo'tayevning "Qo'rg'onlangan oy" romanida markaziy o'rinni egallaydi. Sh.Bo'tayev romanda jamiyat, ya'ni sovet hukumati (sobiq O'zbekiston SSR) o'rtoq Mirzoyev kabi fahmsiz, savodsiz, bo'ysunuvchi, ochko'z, ziqna, xudbin tiplar qo'lida bo'lganligiga nozik ishora qiladi (o'z-o'zidan olovlanib ketishimi yoinki boshqa jihatlarimi boshqalarga ham yoqmapti shekilli, o'rtoq Mirzoyev tezda bo'shab ketdilar), o'rtoq Ivanovga o'xshash (...u kishiing aftlari avval qizardi, so'ng oqardi, so'ng ko'kardi, urishib berdilar, buyuraman, dedilar, eksang ekding,

ekmasang tuyog'ingni shiqillat, dedilar. Bilasizlarmi-bilmaysizlarmi, boshliqlarning jahli burnining uchida turadi), o'rtoq Tangrikuliyev kabi (...negadir u kishi nuqul so'kinardilar, joy qurigandek bu yerga, olis makonga ishga tayin qilishganidan norozi bulardilar. Kela solib, qilgan ishlari menga zug'um qilish bo'ldi.). Ular jamiyat uchun foydasiz ishlar bilan band bo'lishgan. Romandan shuni ham bilib olamizki, 80-yillaridagi ijtimoiy ahvol tufayli o'zbek xalqi qabristonga borib, marhumga duo o'qishga haqqi yo'q edi: «-Hozir ba'zi odamlar marhum ruhiga fotiha o'qishga ham, qabristonga borishga ham qo'rqib qolishgan. Guyoki shunday qilishsa hukumatga qarshi borgandek bo'lisharmish...» (Sh.Bo'tayev. Qo'rg'onlangan oy, 44-b.).

III. Axloqiy muammolar. Ober-Kalandalov, O'rozqul, Bozorboy, Murtazo, Doniboilar ma'naviyatsizlik botqog'iga botgan odamlardir. Ch.Aytmatovning "Qiyomat", "Oq kema" romanlarini, Sh.Bo'tayevning "Qo'rg'onlangan oy" romanini ham ezgulik va yomonlik munosabati nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mumkin. Masalan, "Oq kema" qissasidan bir parcha o'qiymiz (bolaning fikrlari): "Nega odamlar shunday yashashadi? Nima uchun ba'zilari yomon, boshqalari yaxshi?". "Va nima uchun odamlar shunday bo'lishadi?" – deb kuyib-pishdi Mo'min. – Sen unga yaxshisan - u senga yomon. Uyalishmaydi ham, o'ylab ko'rishmaydi ham" (Ch.Aytmatov, Qissa va hikoyalar, b.287). Hikoyani muhokama qilishda qatnashgan V. Solouxin unga o'ziga xos tavsif-tahlil bag'ishlagan. "... Kimning orzusi bo'lsa, go'zaldir: "Insonning qalbida yashovchi go'zallik uning fazilatlarini oshiradi, uni yanada yaxshi, pokiza, mehribon, hurmatliroq qiladi"²³. Murtazoning fikrlari (Sh.Bo'tayevning "Qo'rg'onlangan oy" romani): "U, ora-chora lo'mbozgina bo'lib qolgan o'g'lini mo'ylovlari sabza urgan yigit holida tasavvur etardi: o'shanda nima bo'ladi? Azal-abad odamzod amal qilib kelgan taomil bo'yicha birovlarini xo'rlaydimi yoki xo'rlanadimi? Xuddi Murtazoga o'xshab, Rahmon aytmog'chi, landovur bo'ladimi? Qorniyyu egnining g'amini o'ylab, o'ylagani bilan chorasini topolmay sarson-sargardon yuradimi? U davrlarga borib balki odamlar oqko'ngil bo'lib ketishar – o'g'lini ko'ngilchan qilib tarbiyalayvergani ma'quldir? Balki, shu ketishda ketaversa, u chog'da Rahmonga o'xshaganlar battar ko'payishar, undan ham battarroq bo'lishar, odamlarning kuni faqat bir-birini aldash, bir-biriga choh qazish bilan o'tar - o'shalarining orasiga Murtazoning ko'ngilchan o'g'ilchasi osmondan tushganday lop etib tushib qolsa qalay bo'larkin?" (Sh.Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, 65-b.).

Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" va "Oq kema" asarlari hamda Shoyim Bo'tayevning "Qo'rg'onlangan oy" romanida vijdon va insoniylik burchi eng oliy axloqiy mezon sifatida yuksak pog'onaga ko'tariladi. Ushbu tamoyilga bee'tiborlik esa insonni yovuzlikka xizmat qilish sari yetaklaydi. Bu asar qahramonlarining tabiatga munosabatida namoyon bo'ladi. O'rozqul, Bozorboy, Murtazo va Hamroboy kabi qahramonlar uchun tabiat – faqat daromad manbai va boshqalar ustidan hukmronlik qilish vositasidir. Ana shunday qahramonlar ojiz bug'ularni o'ldirib, asrlar davomida saqlanib kelayotgan daxlsiz o'rmon daraxtlarini kesar

²³ <https://nsportal.ru/shkola/literatura/library/2017/10/30/mir-prirody-glazami-rebenka-na-materiale-povesti-ch-aytmatova>

ekanlar, nafaqat tabiatni, balki go‘zallikni ham yo‘q qiladilar. Tabiatni g‘orat qilar ekan, bunday qahramonlar aslida insonning ichki go‘zalligini ham yo‘qota boshlaydi. Va so‘ng, shunday savol paydo bo‘ladi: agar tabiatni va go‘zallikni saqlab qolmasak, har birimiz o‘z kelajagimiz va qalbimizdagi ezgulikni ham yo‘qotib qo‘ymaymizmi? Asarlardan olingan parchalar misolida buni ko‘rib chiqamiz:

“Men esa bobomiz shunchaki har bir daraxtni ayayapdi, deb o‘yladim. O‘rozqulning yog‘ochlar o‘rniga qarag‘aylarni sovg‘a qilishini u unchalik ham yoqtirmasdi... Biri allaqachon pastga tushirilgan, daryoning narigi tomoniga yo‘naltirilib, mashina keladigan joyga yetkazilgan edi. Ikkinchisi – mana u, uni pastga sudrab tushyapdilar. Agar O‘rozqul endi mana shu yog‘ochlar tagida yegan-ichganini qaytara olsa edi, faqat hozir chidashga majbur bo‘layotgan mehnat va azoblardan qutulish uchun, u buni shu zahoti bajarib qo‘ygan bo‘lardi” (Ch.Aytmatov, Qissa va hikoyalar, 290-b.). O‘tgan yili u qarindosh-urug‘i Buginga sovg‘a qilingan qo‘zi uchun qarag‘ay yog‘och va‘da qilgan edi. Ammo O‘rozqul tog‘larga chiqishga erinchoqlik qilib, birinchi duch kelgan kesilgan daraxt bilan qarindoshidan qutulishga qaror qildi... Ketishdan oldin esa yozda O‘rozqul bilan til birlashtirganlar falon kunda, falon soatda mashinalar bilan kordonga kelishlarini, va‘da qilingan yog‘ochlarni olib ketishlari haqida uni ogohlantirdilar. Mana bugun kechqurun ikkita qarag‘ay daraxtini olib ketish uchun tirkamali mashina ham etib keladi» (Ch.Aytmatov, Qissa va hikoyalar, 291-b.). Bug‘u shoxlarini sotish ham qissaning bir hikoyasida tasvirlangan. Shoxlarni qanday olishni bilmagan kishi noqobil odam deb hisoblangan. Shoxdor ona bug‘u jinsidagi ba‘zi odamlar shoxlarni ovlashni o‘zlariga kasb qilib olishgan. Bu hikoyasi bilan Ch.Aytmatov ekologiya muammosi naqadar jiddiy global tus olganini bizga bildirib qo‘yadi. Bug‘u shoxlarini sotish motivini Sh. Bo‘tayevning romanida ham uchratish mumkin: *“–Menga uning shoxi kerak, - deya shivirladi xotining qulog‘iga sir aytayotgandek bo‘lib. – Oq bo‘kanning shoxi oldida bo‘rining tirnog‘iyam, burgutning panjasiyam hech nima... Hamroboy o‘z-o‘zicha rejalar tuzib, xayolan hisob-kitob qilganча borarkan, qarshisidan bir it vovillab chiqqan edi...”* (Sh.Bo‘tayev, Qo‘rg‘onlangan oy, b34-b.). Bozorboy, xuddi yirtqichdek, bo‘ri iniga bostirib kiradi. U olib qochilgan bo‘ri bolalarini o‘sha joydan darhol foydali sotishni rejalashtiradi. U bunga amin edi, chunki o‘tgan yili bir cho‘pon hayvonot bog‘iga onasidan ajralmagan bo‘ri bolalarining butun bir naslini sotgan, har bir bo‘ri bolasi uchun ellikdan olgan. Qahramonlarning shafqatsizligi va yuraksizligi hayvonlarga nisbatan namoyon bo‘ladi: nafaqat bo‘rilar, bug‘ular va sayg‘oqlar, balki Insonning o‘zi ham halokatga duchor qilinadi. Romanlarda odam - yirtqichning paydo bo‘lishi bilan tabiatdagi uyg‘unlik buziladi.

“Ijtimoiy-axloqiy muammolar fonida azob chekayotgan hayvonlar tasviri: Shoxdor Ona Bug‘u – Ona Sayg‘oq, Toshchaynar – Yolg‘iz Qorabosh, Akbara – Ona bo‘ri” deb nomlangan uchinchi faslda hayvonlar obrazi tahlil qilinadi. Ch.Aytmatov hayvonlari tabiat timsolidir: ona bug‘u (“Oq kema”), Gulsarining oti (“Alvido, Gulsari”), tuya Karanar (“Asrga tatigulik kun”), kitlar (“Kassandra tamg‘asi”), Akbara bo‘ri (“Qiyomat”), qor qoplani (“Tog‘lar qulaganda...”). Ular nafaqat bizni o‘rab turgan dunyoga qarashni, unga nisbatan

axloqiy munosabatni, balki dunyoni, umuman tabiatni estetik idrok etishni ham shakllantiradi.

Ch.Aytmatovning “Qiyomat” romanidagi inson tabiatining asl mohiyatidan bexabar bo‘rilar oilasining, Akbara va Toshchaynarning, Sh.Bo‘tayevning “Qo‘rg‘onlangan oy” romanidagi Yolg‘iz Qoraboshlarning boshiga ko‘p iztiroblar tushdi. Qamishlar orasida oilasidan judo bo‘lishi Yolg‘iz Qoraboshni ham, Akbar va Toshchaynarni ham tom ma‘noda qattiq ranjitdi. Ch. Aytmatov va Sh. Bo‘tayev tasviridagi Akbara va Toshchaynar hayvonlar taqdiri insoniyat taqdiri bilan chambarchas bog‘liq. Deyarli butun roman bo‘ylab o‘tadigan bir juft bo‘ri romanning asosiy qahramonlari hisoblanadi.

Yolg‘iz Qorabosh, ona bug‘u, Akbaraning yig‘lashi, Bo‘ston qo‘shni atrofida bo‘rilarning uvillashi yozuvchilarning inson va tabiat taqdiri birligini ko‘rsatadigan uslublaridir. Bo‘rilarning nomlari gapiradigan ismlar bo‘lib, ma‘noga ega. *«Agar kimdir Akbarani yaqindan ko‘rsa, uning shaffof ko‘k ko‘zlariga hayron bo‘lardi - bu kamdan-kam uchraydigan va ehtimol o‘ziga xos hodisa. Bo‘ri mahalliy cho‘ponlar orasida Akdala, boshqacha qilib aytganda, Beloxolka laqabini oldi, lekin tez orada, til o‘zgarishi qonunlariga ko‘ra, u Akbaraga, keyin esa Akbaraga - «Buyuk»ka aylandi va bu orada hech kim bilmas edi. Bu ilohiylik belgisi edi»* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 9-b.).

Toshchaynar – toshni maydalay oladigan jag‘lari uchun atrofdagi cho‘ponlar unga shunday laqab qo‘yishgan. Inson tomonidan qilingan shafqatsizliklar oqibatida Akbara va Yolg‘iz Qorabosh ana shu kuchli raqib bilan hayot-mamot to‘qnashuviga kirishishga majbur bo‘ladilar. Bozorboy tomonidan bo‘ri bolalari o‘g‘irlangach, Akbara o‘z qayg‘usini anglatish uchun Bo‘ri-Onaga faryod bilan murojaat qiladi: *“Menga qara, bo‘rilar ma‘budasi Buri-ona, men sovuq tog‘larda baxtsiz va yolg‘iz Akbaraman. Oh, o‘zimni qanday yomon his qilyapman! Eshityapsizmi, qanday yig‘lab-siqtayotganimni... Oh, Buri-ona, meni eshitayapsanmi? Eshit, eshit, eshit meni, Bo‘ri-ona, faryodimni eshit!”* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 256-b.). Yolg‘iz Qorabosh ham g‘am-g‘ussasini nola bilan ifodalaydi: *“Bir zamonlar tevarak-atrofga vahshatu qo‘rquv solgan bu uvlash endi barcha tayanchu ilinjilaridan mosuvo bo‘lgan g‘aribona ojiz ingrash edi, xolos. E’tibor berib quloq solinsa, undagi mung va qayg‘uni, tanholik va iztirobni, o‘zini qayerga qo‘yishni bila olmayotganlik ohanglarini payqash qiyin emasdi»* (Sh.Bo‘tayev, Qo‘rg‘onlangan oy, 74-b.). *“Izg‘irin tunlarda osmondan najot axtarayotgandek qo‘rg‘onlangan oyga boqib tinimsiz uvlar, o‘z yaqinlarini chorlayotgandek bo‘lar, ko‘z o‘ngidan qamishzorni tark etishga o‘zi majbur qilgan qavmdoshlari o‘tar...”* (Sh.Bo‘tayev, Qo‘rg‘onlangan oy, 255-b.). Naslni yo‘qotishdan ko‘ra chuqurroq muammo yo‘q. Ikki romandagi bo‘ri bolalarining o‘limi Akbar va Yolg‘iz Qoraboshni odam ovchisiga aylantiradi. Shu sababli odamdan qasos olishga, yetkazilgan og‘riqdan o‘ch olishga tayyor bo‘lgan hayvonning g‘azabnok holatlari tasvirlanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Qiyomat” va “Qo‘rg‘onlangan oy” romanlarining til xususiyatlari va tabiat tasvirining poetik xususiyatlarining qiyosiy tahlili**” deb nomlanadi. Bu bob ham uch fasldan tashkil topgan. Bobning birinchi fasli **“Yozuvchilarning peyzaj va tabiat ko‘rinishlarini tasvirlash mahorati”** deb nomlanadi.

Butun dunyo adabiyotida manzara tasviri bo‘lmagan badiiy asar yo‘q. Ushbu syujetdan tashqari element asarlarga turli maqsadlarni kiritadi. U badiiy asarning oxirigacha asosiy voqea uchun chiroyli va g‘ayrioddiy fon bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Yozuvchilar romanlarida qo‘llagan detallardan biri tabiat tasviridir. Badiiy adabiyotda manzara tasviri turli vazifalarni bajaradi. «Peyzaj» atamasi ko‘plab adabiyotshunoslikka oid lug‘atlarda, o‘quv qo‘llanmalarida va darsliklarda keng taqdim etilgan²⁴. Masalan, A.Fyodorov-Davidovning adabiyotshunoslik atamaları lug‘atida quyidagi ta‘rif berilgan: “peyzaj” (fransuzcha *paysage*, *pay* – joy, mamlakat) – qanaqa bo‘lsa ham birorta joyning real ko‘rinishi, rassomlik san‘atida – tabiat tasviri, adabiyotda kompozitsion elementlardan biri va og‘zaki-badiiy detallashtirishning turi hisoblanadi. Peyzaj tashqi dunyo, ochiq makonning o‘ziga xos tasvir turi sifatida ajralib ko‘rinadi²⁵. Peyzaj muallif nutqining tabiati, hikoya qiluvchi obrazi bilan chambarchas bog‘liq²⁶. Tabiat manzaralari, chunonchi payzaj badiiy asarining ajralmas qismiga aylangan. Mualliflar o‘z qahramonlarining kechinmalarini to‘liq ochib berish uchun hikoyasiga tabiat rasmlarini kiritishadi. Adabiy peyzaj qahramon, makon, zamon obrazini yaratishda va o‘z pozitsiyasini ifodalashda muallif qo‘llaydigan asosiy ekspressiv vositalaridan biridir²⁷. Tabiat manzaralari tasviri nafaqat roman kompozitsiyasida, balki personaj xususiyatlarini tasvirlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Tabiatga munosabat orqali insonning ichki dunyosi ochib beriladi. Peyzaj tasviri badiiy asarning elementidir.

Bobning ikkinchi qismi “**Yozuvchi uslubiy metodining o‘ziga xosligi**” deb nomlanib, yozuvchilarning romanlarida badiiy, kompozitsion va uslubiy o‘ziga xosligi ko‘rib chiqiladi.

Tabiat manzaralarini tasvirlashda yozuvchi o‘z qahramonlari nutqida turli **stilistik vositalardan** foydalanadi. **Epitet** predmetning ekspressiv xarakteristikasini o‘z ichiga olgan so‘z birikmasidir: “*go‘dakona nafas olish*”, “*toshloq chang*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 12-b.), “*shiddatli sur‘at*”, “*tabiiy ofatlar*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 16-b.); “*ko‘k-qoramtir osmon*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 128-b.), “*daryo o‘rtasidagi tanho orolga*”, “*samoviy yulduzdagi kabi*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 163-b.); “*kechikib kelgan tomchilar*”, “*buyuk savanna*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 201-b.), “*buyuk tog‘ ko‘li*”, “*quyoshli qiyaliklar*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 206-b.), “*aholisiz joylar*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 215-b.), “*bukri tog‘lar*”, “*to‘liq quvvatda*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, b. 230), “*buyuk ko‘l*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 249-b.), “*olovli zulmat*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 296-b.); **Sh.Bo‘tayevara**: “*daydibadal shamollar*” (Sh.Bo‘tayevara, Qo‘rg‘onlangan oy, 240-b.); “*chayir qo‘llar*”; “*chuqur-chuqur azhin-la*”, “*ko‘zlari chaqnoq va tiyrak edi*”; “*ko‘hna dunyo*” (Sh.Bo‘tayevara, Qo‘rg‘onlangan oy, 243-b.); “*yovvoyi shiddat*”, “*shiddatvor qush*” (Sh.Bo‘tayevara, Qo‘rg‘onlangan oy, 249-b.); “*xunkor his*” (Sh.Bo‘tayevara, Qo‘rg‘onlangan oy, 255-b.); “*toza*

²⁴ Поспелов Г.Н. Введение в литературоведение. – Москва: Высшая школа, 1988. – 528 с.; Кожевникова В.М., Николаева П.А. Литературный энциклопедический словарь. – Москва: 1987. – 1415 с.

²⁵ Федоров-Давыдов А. Русский пейзаж XVIII – начала XIX века. – Москва: Искусство, 1953. – С. 125.

²⁶ Словарь литературоведческих терминов. Ред. - сост.: Л.И.Тимофеев и С.В.Тураев. – Москва: Просвещение, 1974. – С. 265.

²⁷ Ключева Н.В. Анализ произведения художественной литературы в старшей школе (пособие для учащихся выпускных в старшей школе). – Барандат, 2011. – 91 с.

havo"; *"buyuk tog'lar"*, *"samoviy bo'shliqlar"* (Sh.Butayev, Qo'rg'onlangan oy, 257-b.); *"tumonat odamlar"* (Sh.Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, 258-b.). Misollardan ko'rinib turibdiki, so'z birikmalaridagi epitetlar turlicha sifatlashlar bilan ifodalangan.

Keyingi usul **shaxslashtirishdir**. Shaxsning xususiyatlarini ham mavhum tushunchalarga, ham jonsiz narsalarga o'tkazadigan trop personifikatsiya deb ataladi. Shaxslashtirishning roli nafaqat ifodali va jonli manzaralarni, balki obrazli manzaralarni ham yaratishdir. Yozuvchilar metafora turlaridan biri bo'lgan ushbu uslubdan jonsiz narsalarga nisbatan foydalanishadi: *"yer orqaga tez jilib ketdi va oyoq ostida g'uvulladi"* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 10-b.), *"jimlik tirik edi"* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 13-b.), *"...daraxtlarning qoramtir uchlari yengil shabadadan silliqgina chayqalib turardi, daryo bo'g'iq shovullardi"*; *"Buyuk savanna uyg'ondi..."* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 24-b.); *"O'rmon tunda og'ir va bo'g'ik tebranardi"* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 60-b.) , *"... agar o'girilib qarasangiz, orqadagi pastlikda, ko'z bilan ko'rinadigan darajada katta ko'l yotardi"* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 249-b.); *"jazirama hali uxlamagan"* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 180-b.), *"shamol shoxlar orasidan hushtak chalib, uning oq peshonasidagi sochlarni qo'zg'atardi"* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 200-b.), *"tog'lardagi soyalar qiyshayib yotardi"* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 208-b.), *"osmonda esa quyosh hali ham porlab turardi, qor eriy boshlagan tog'lar ham ochiq sariq jarlikni jimgina o'rab olgan ..."* (Ch. Aytmatov, Qiyomat, 210-b.), *"bu orada quyosh yerning eng chekkasiga o'tirdi, tog' cho'qqilari orasiga yotib oldi, yonib tamom bo'lib, so'ndi"* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 215-b.), *"oy bukchaygan tog'lar ustida porladi, yulduzlar ham bitta qolmasdan to'liq quvvat bilan miltilladi"* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 230-b.), *"...derazadan ingichka hushtak bilan birdan kuchayib (yana pasayib) ketadigan sovuq shamol lop etib kirib keldi ..."* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 253-b.), *"ovozlarini yo'qotgan dunyo esa sukunatga cho'kkandi"* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 296-b.); **Sh.Bo'tayevda**: *"Qamishzor esa shabadada chayqalib shovullar, botayotgan quyoshning nurlari qamishlarning uchlarida ilinib qolib ketishga jah qilgandek taassurot uyg'otardi"* (5-b.); *"quyosh qoramtil tepaliklar ortidan ko'tarilib kelar edi"* (Sh. Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, 15-b.) ; *"U osmonga boqdi. Quyuyq, qora - ko'kish bulutlar qabatida oy kezardi"* (Sh.Bo'tayev, "Qo'rg'onlangan oy", 71-b.); *"Dasht uyg'onib kelmoqda edi"* (Sh.Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, 109-b.); *"Hatto qumto'dalarda ham o'to'lanlar qulfurishga chog'langan"* (Sh. Bo'tayev, "Qo'rg'onlangan oy", 109-b.); *"holbuki, Rangontog'ning oq qalpog'ini yechib ulgurmagani haqiqiy cho'qqilari..."* (Sh.Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, 174-b.); *"quyosh nayza bo'yi ko'tarilgan, tevarak-atrofga, jamiki borliqqa saxiylik bilan haroratini ulashardi"* (Sh.Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, 175-b.); *"oy o'rog'i to'lqinlar ustidagi kemadek qalqib-qalqib goh bulutlar qabatiga kirib yo'qolar, goh keng osmon sahniga sirg'alib chiqib kezinardi"* (Sh.Bo'tayev, "Qo'rg'onlangan oy", 109-b.); *"taqdir shamoli cho'lu biyobonlar bag'ridagi tupkagayam laqaylarning bir urug'larini eltib tashlagan"* (Sh.Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, 109-b.).

Ch.Aytmatov va Sh.Bo'tayevlar tomonidan qo'llanilgan meteorologik hodisalar tarkibli **frazeologik birliklar** alohida qiziqish uyg'otadi.

Ularning o‘ziga xos belgilari bor, masalan: “*Ruhda soya bo‘lmasa, shaharda hamma narsa quvonch va mazmunga to‘ladi*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, b51-b.); “*Faqat yolg‘izlikda o‘tirmaslik va dengizdan ob-havoni kutmaslik uchun u hamma narsaga tayyor edi*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 192-b.), “*boshga qor kabi tushdi*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 230-b.); “*Ular yirtqich hayvonlardir, ular bir narsani bilishadi: ularni bu yerga iz olib kelishgan va bu erda hammasi tugaydi, dunyo ponadek birlashdi*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 232-b.); “– Garchi men bo‘lsam ham! Endi bu bo‘rilarni topishga urinib ko‘r – *shamolni dalada qidir*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 237-b.); Sh. Bo‘tayeveda: “*qo‘l uzatsa yetkudek ko‘rinadi-ku*” (Sh.Bo‘taye, Qo‘rg‘onlangan oy, 178-b.).

Manzara tasvirida **asliy, nisbiy va egalik sifatlari** ham qatnashadi: “*kunduzgi havoning isishi bilan*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 5-b.); “*uyg‘ongan qon*”, “*vahimali ayuhannoslar*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 6-b.), “*poda terining hidi bilan*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 10-b.), “*bo‘ri pistirmalari*”, “*dumaloq skver yam-yashil va rang-barang bo‘lib ketardi*”, “*bilmayman, nega mening ruhim juda xotirjam va baxtli edi – ehtimol bu Moskva ko‘chalaridandir*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 51-b.), “*To‘lin oy ularning boshining o‘ng tomonida turardi*”, “*qish tongida*”, “*saksovul yerlarida*”, “*bo‘rilar to‘dasi*”, “*sho‘rxok dasht*” (13-b.), “*Rossiya yozi*” (185-b.), “*kech kuz*”, “*momiq bulutlar*”, “*oktyabr osmonida*”, “*to‘q qizil-jigarrang barglar*” (190-b.), “*qor tizmasi*” (249-b.). Romanlarda mualliflarning **metaforadan** mohirona foydalanilganini ko‘rish mumkin. Metafora rolini turli so‘z turkumlari bajaradi: otlar – “*havo shaffofligi*”, “*oltin barglar*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 49-b.), “*hayotning issiqligi*”, *gorizont yong‘inlari* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 202-b.), *shamol hidlari*; *Issiqko‘lning ko‘m-ko‘kliklari* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 249-b.), *tungi-shikam* (256-bet); Sh.Bo‘tayeveda: “*taqdir shamoli*” (Sh.Bo‘taye, Qo‘rg‘onlangan oy, 239-b.); «*er yuzi juda keng ekan*» (239-b.); «*taqdir hukmi*» (Sh.Bo‘taye, “*Qo‘rg‘onlangan oy*”, 257-b.); “*samo hukmi*”, “*oy o‘rog‘I*”; **sifatlar** (uning o‘sha tandir yonidagi *o‘tli nigohini* qo‘z oldiga keltirib) (Sh.Bo‘taye, “*Qo‘rg‘onlangan oy*”, 48-b.);

Til vositalaridan biri bo‘lgan navbatdagi stilistik usul **qiyoslashdir**. Qiyoslashda ikkalasi uchun biron-bir umumiy belgiga ega bo‘lgan ikkita predmet qiyoslanadi: “*dumaloq skver farovon orol kabi yam-yashil va rang-barang bo‘lib ketardi*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, b.50), “*xiralashgan, momiq bulutlar, okean poyonidagi qo‘zichoqlar kabi, yoz davomida o‘ngib ketgan oktyabr osmonida oqarib ko‘rinardi*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 190-b.), “*Olov osmongacha otilib chiqdi, qishda yerni tuman qoplaganidek, dashtni tutun qopladi*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, b.202); “*Atrofdagi butun muhit – tog‘lar, qoyalar – qalqib turishini, tumandagiga o‘xshab suza boshlashini kutardim*” (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 208-b.), «*va har gal Issiqko‘lning, qorong‘ilashtirilgan oyna kabi, harakatsiz qotgan ko‘m-ko‘k rangiga nazar solgim kelardi*» (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 249-b.), “*... shunday katta va og‘ir, har biri uning mushtiday, yulduzlar tushmasdi*» (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 253-b.); «*...va salqin havo, hayotning o‘zi kabi, o‘tmoqda, taralmoqda*» (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 255-b.); **Sh.Bo‘tayeveda**: “*kecha sutdek oydin edi*”, “*yoshu qari tepalikda g‘uj bo‘lib ho‘-o‘v etakdagi chimzordan guldastalar o‘qimidek oqib o‘tayotgan*”; “*bu kelinchaklarni faqatgina shaffof suvli ummonlarning oppoq nilufarlarrigagina kiyoslash joiz edi*” (Sh.Bo‘taye, 23

Qo'rg'onlangan oy, 171-b.); *“samo ko'm-ko'k shisha kabi tinik, parcha-parcha oq bulutchalar bu shishani artayotgandek bemalol kezib yurishardi”*; *“u uchmoqqa shaylangan kaptardek harsangtoshlar ustiga chiqib qo'llarini keng yozar”* ((Sh.Bo'tayev, “Qo'rg'onlangan oy”, 175-b.); *“oppoq qor qoplagan Bo'zdala bu yerdan kaftdagidek ko'rinib turardi”* (Sh.Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, 255-b.); *“oyning sutdek to'kilayotgan shu'lasi”* (Sh.Bo'tayev, “Qo'rg'onlangan oy”, 256-b.).

Romanlarda mualliflar atrof-muhitni tasvirlashda foydalangan **sanashlarni** ham uchratish mumkin. Masalan: *“va, umuman olganda, issiq yarim cho'l tekisliklari va tepaliklari bo'ylab yaslanib yotgan, faqat shu yerda o'sadigan qurg'oqchilikka chidamli yulg'un turlari, shunday yarim o't-yarim daraxt, toshday qattiq, dengiz arqoniday pishiq, qumli saksovul, qattiq yaylov o'tlari va eng muhimi, qamish uchli chiy, yarim cho'ling bu go'zalligini... bu buyuk Osiyo cho'lining o'rnatilgan turmush tarzini buzmagani”* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 14-b.), *«ammo men Moskvaning “yashil o't bahori»ni afzal ko'raman – unda tun shafaqi yog'dusi ko'chalarda ham, shaharda ham shahar tepasidagi yulduzli osmonda ham hukmronlik qiladigan yorug' tunlarda bu quvonchlidir”* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 49-b.), *“Tunda o'rmon vazmin va jimjit tebranardi, pastda daryo tinimsiz toshlarga urilib g'uvillardir, atrofdagi tog'lar esa tosh sukunatda qotib qolgandi”* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, b.60); **Sh.Bo'tayevda:** *“u, tepalikdan o'tib, yomg'iru qor suvlari, shamolu dovullar o'pira-o'pira hosil qilgan jarlik tomon endi. Jarlik bo'yidagi jiydayu na'mataklarning, yovvoyi dov-daraxtlarning qoramtir tomirlari chiviqday ilang - bilang osilib tushgandi”* (Sh.Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, 47-b.); *“U mahallari osmon ham, bulutlar ham, yulduzlar ham qandaydir boshqacha, sirli - sehrlil, g'aroyib edi”* (Sh.Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, 71-b.). Sanash gapning uyushiq bo'laklari qatoridir. Shunday qilib, tabiatni tasvirlovchi asarlarni qiyosiy tahlil qilish natijalarini umumlashtirib, romanlarda qirg'iz va o'zbek xalqlari aholisiga xos bo'lgan milliy xususiyatlar mavjudligini aniqlash mumkin. Bu har ikkala romanda ham epitetlar, metaforalar va personifikatsiya orqali namoyon bo'ladi. Epitetlar orqali mualliflar atrofdagi voqelikka o'z munosabatini ko'rsatadilar. “Qiyomat” va “Qo'rg'onlangan oy” romanlarining boshidanoq adiblar bizni ma'lum bir joyga: Ch.Aytmatov – tog'larga, Sh.Bo'tayev esa qamishzorlarga “bog'lashadi”. Masalan, buni asarlar misolida ko'rib chiqamiz: *“Bola nafasi kabi qisqa, yengil, quyoshga qaragan tog' yonbag'irlarida kunduzgi isishdan so'ng, ob-havo tezda o'zgarib ketdi...”* (Ch.Aytmatov, Qiyomat, 5-b.); *“Bir mahallar ulug' daryodan suv ichgan ekinzorlarning sizot suvlari yig'ilib hosil bo'lgan ko'l va uning bo'yidagi qamishzor haqida xalq orasida turli-tuman naqlaru har xil rivoyatlar edi”* (Sh.Bo'tayev, Qo'rg'onlangan oy, b.4). Romanning boshidanoq manzara tasviri butun asar muammolarini belgilaydi. Tabiat manzaralari tasvirlarida yozuvchilarning har biri vatan tuyg'usini va xalq ruhini o'ziga xos tarzda ifodalay olgan.

Bobning uchinchi fasli **“Romanlarda personaj yaratishning o'ziga xos xususiyatlari”** deb nomlanadi. Muallif “Qo'rg'onlangan oy” romanida oddiy xalqning orzu-umidlarini tasvirlab, davr va zamon qiyofasini tavsiflagan. Yozuvchi obrazlarni harakatlar orqali ochib beradi. Sh.Bo'tayevni xalqchil adib deyish

mumkin, chunki uning barcha qahramonlari muallif tasvirlagan milliy urf-odatlar, qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Keling, buni misol bilan ko‘rib chiqaylik: “*Ubaydulla chavandoz tog‘begilikka o‘tayotib eski udumni unutmadi: elu yurtni yig‘ib osh berdi, otboqarlikni o‘g‘lim Sanoqulga topshirdim, dedi*” (Sh. Bo‘tayeov, *Qo‘rg‘onlangan oy*, 105-b.); Yozuvchi Ubaydulla chavandozning domla bilan suhbatini orqali qator ijtimoiy muammolarni ko‘taradi: «*Bundan ortiq yana qanaqa qiyomat bo‘lishini kutyapsiz muallim, dedi Ubaydilla chavandoz kuyunganicha, avval bag‘rida turfa jonivorlar yayrab-yashnagan cho‘lu biyobonlarimizni yo‘qotdik, yana cho‘lquvar nomini olib faxrlanib yurdik, mana endi dunyoning chorak qismining uyida chiroq yondiramiz yeb jar solmoqdamiz, daryoni to‘sib to‘g‘on quryapmiz, Yangi Zamon dengizini barpo etyapmiz deb o‘zi ochyalang‘och xalqdan pul ham talab qilyapmiz, endi avval cho‘l bo‘lgan yerlarni sho‘r bosib na cho‘llogi, na obodligi qolyapti, bularga nima deysiz, yana qanaqa qiyomat bo‘lishini kutayapsiz, muallim*» (Sh. Bo‘tayeov, *Qo‘rg‘onlangan oy*, 117-b.).

“*Qo‘rg‘onlangan oy*” romanida muallif eski va yangining to‘qnashuvini, ya‘ni ota va o‘g‘il o‘rtasidagi “dushmanlik” munosabatlarini ko‘rsatadi: O‘rozmat aka va Murtazo. “*O‘zing qaysi koshonada tug‘ilib, bir dumalab odam bo‘lib qolgansan? – dedi bo‘g‘iq tovushda. – To‘yni taomil bo‘yicha uyda emas, ko‘cha-ko‘yda o‘tkazish kerak aslida. – Bir kamim shu qoluvdi. – Chamasi sen to‘ydan ham ko‘ra qo‘noqlarga uyingni ko‘z-ko‘z qilib qolishni istayapsan, shekilli. – Ha, shuni istayapman! – Murtazo baqirib yuborganini sezmay qoldi*» (Sh. Bo‘tayeov, *Qo‘rg‘onlangan oy*, 115-b.); Ovchi va uning otasi Ismoil: “*–Yana ovga boryapsanmi? – Ko‘ryapsiz-ku. - Shu ishingni yig‘ishtirsang bo‘lardi endi, axir sen yirtqich hayvon emassan-ku, bilib qo‘y, yaxshilikka olib kelmaydi. – Yaratganning o‘zi bir jonivorni ikkinchisiga yemish qilib yaratgan-ku, ota, menda nima ayb. – Ota-bobolarimizdan, kiyik salom bersa otma, degan o‘git qolganini unutma...*» (Sh.Bo‘tayeov, *Qo‘rg‘onlangan oy*, 14-b.).

Otalar va bolalar o‘rtasidagi bu dialoglar dramatikdir. Ona va ota hamisha Murtazoni to‘g‘ri yo‘lga solgan.

Xulosa qilishimiz mumkinki, Sh.Bo‘tayeov bu parchalarda o‘zining badiiy obrazlari bilan har bir kitobxonga ta‘sir o‘tkazishga intiladi.

Qahramonlar nutqi milliy tilning butun boyligi va o‘ziga xosligini ifodalovchi xalq iboralari, obrazli timsollarga boy. Yozuvchi bu romanida XX asr boshidagi oddiy o‘zbek xalqining hayotini real ko‘rsatib bergan.

XULOSA

Ch.Aytmatovning “Qiyomat” va Sh.Bo‘tayeovning “Qo‘rg‘onlangan oy” romanlari misolida hayvonot dunyosi mavzusini o‘rganish va badiiy adabiyotda ijtimoiy muammolarni tadqiq etish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Atoqli adiblarining ijtimoiy-ma‘naviy mazmundagi romanlarida milliy ma‘naviyat, ruhiy makon tabiatining hukmronligi mavjud bo‘lib, bu adabiy jarayonda yangi tamoyillarning yuzaga kelishiga, komparativistikaning fan sifatidagi imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilgan.

2. XX asr romanlarida badiiy tasvir va talqinning metodologik jihatlari yangilanib, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, shaxsiy-ruhiy va maishiy ko'lamda yangicha yondashuvlar namoyon bo'ldi.

3. Chingiz Aytmatovning buyukligi shundan iboratki, u qirg'iz xalqining milliy zaminida yaratilgan obrazlarni umuminsoniy qadriyatlarining ijtimoiy-madaniy hodisalari sifatida jahon darajasiga ko'tara olgan. Adib asarlarida shaxsiy fazilatlar qahramonlar obrazlarida, g'oya sifatida tasvirlangan eng yaxshi tarbiya namunalari aks ettirilgan.

4. Yozuvchi ijodi milliy koloritning badiiy asarda aks etishining yorqin namunasi bo'lib, unda zamonamizning dolzarb muammolari o'z ifodasini topgan. Dunyo taqdiri uchun mas'uliyatni anglash va so'z san'ati Chingiz Aytmatov estetik pozitsiyasining o'zagini tashkil etgan.

5. Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" romaniga qadar uning asarlarida yirtqich hayvonlar va tabiat insoniyatga qarshi qo'yilmagan, balki inson dunyosi bilan uzviy bog'liq holda tasvirlangan. "Qiyomat"da bo'lsa, bo'rilar o'z ajdodlari uchun qayg'uradigan oila sifatida tasvirlangan bo'lib, ularda burch, mas'uliyat hissi juda baland. Inson esa o'ta xudbin tabiati tufayli yolg'izlikka mahkum bo'lib borayotgan mavjudot sifatida tasvirlanadi. Ch. Aytmatov inson ichki olamidagi ezgulik va yovuzlik kurashi muammosini chuqur ochib berdi hamda bu muammoga ijtimoiy-falsafiy va badiiy munosabat bildirdi.

6. Ch. Aytmatov va Sh. Bo'tayev o'z romanlarida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni badiiy-falsafiy darajada anglab yetadilar, bu yozuvchilar eko-gumanizmining asosiy tomonlari va jihatlardan biri hisoblanadi. Aytmatov va Bo'tayevning romanlarida asosiy g'oya Yerdagi hayot bilan bir qatorda odamlar tomonidan tirik jonni saqlab qolish g'oyasidir.

7. Siyosiy motivlar, ijtimoiy muammolar yozuvchilar tasavvurini, bosh qahramonlarining, xoh u odammi, xoh hayvonot olamimi, hissiy kechinmalaridan kam bo'lmagan darajada band qiladi. Ch. Aytmatov sho'rolar davrining oddiy bir yozuvchisi kabi o'zlashtirgan psixologik tahlil usuli «Qiyomat»da bosh qahramonlar – odamlar va bo'rilar obrazlarining qiyofasida ayniqsa yaqqol namoyon bo'lgan. Sh. Bo'tayev o'z fikri, dunyoqarashini original ifoda etishi bilan xuddi shu adabiy-estetik tamoyil va tasvir uslubiga amal qilgan.

8. Yaqin tarix va zamonaviy ijtimoiy hayotni badiiy o'zgartirib, lekin na tarixiy voqelik muhitini, na zamonaviy hayot tarzini hech qanday tarzda buzib ko'rsatmagan ikki mashhur adib – Ch. Aytmatov va Sh. Bo'tayev ma'naviy-ma'rifiy didaktikaga, aqliy, axloqiy va milliy qarashlarga asoslangan g'oyaviy-estetik xulosaga ega asarlar yaratganlar.

9. Romanlarda tasvirlangan tabiat manzaralari joyning geografik belgilanishi, qahramonlarning ichki dunyosi va his-tuyg'ularini aks ettirish kabi turli vazifalarni bajaradi. Romanlardagi manzara hayotning ijtimoiy sharoitlarini xarakterlagan, shu bilan birga mahalliy rang yaratish vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lgan.

10. Romanlarda badiiy tasvir vositalari – epitet, metafora, shaxslashtirish va qiyoslash muhim rol o'ynagan, ular badiiy detallar tasvirini kuchaytirib, tabiatning to'liq tasvirini yaratgan. Ch. Aytmatovning "Qiyomat" romani va Sh. Bo'tayevning "Qo'rg'onlangan oy" romani nafaqat tabiatga, balki uning aholisiga ham ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga chaqiriqdir.

11. “Qiyomat” va “Qo‘rg‘onlangan oy” romani syujetining o‘zagini ezgulik bilan yovuzlik, insonparvarlik bilan g‘ayriinsoniylik, vijdon bilan nomus o‘rtasidagi qarama-qarshilik tashkil etadi. Har bir yozuvchi o‘z qahramonlariga ana shu fazilatlarni bergan. Bularning namoyon bo‘lishlarini har bir qahramonning harakatlarida ko‘rish mumkin.

12. Romanlarda markaziy muammo o‘z yashash joyiga beparvo munosabatni tasvirlashdir. Romanlar bayoni markazida Ch.Aytmatov va Sh.Bo‘tayevlar har bir qahramonning tashqi dunyo bilan munosabatini aks ettirgan. Hayvon obrazlari romanlarda boshqa qahramonlarga qaraganda ko‘proq inson sifatida ko‘rsatilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

БЕКМИРЗАЕВА ЛОЛА РАХМАТУЛЛАЕВНА

**ТЕМА ЖИВОТНОГО МИРА И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СОЦИАЛЬНЫХ
ПРОБЛЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (на примере
сопоставительного анализа романов Ч. Айтматова “Плаха” и
Ш. Бутаева “Обрамленная луна”)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан под номером B2021.4.PhD/Fil1849.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Пардаева Прода Мамаюнусовна
доктор философии по филологическим наукам (PhD),
доцент

Официальные оппоненты: Умурова Гузал Хотамовна
доктор филологических наук (DSc), профессор
Бобохонов Мавлон Рахматиллаевич
доктор филологических наук (DSc), профессор

Ведущая организация: Джиззакский государственный педагогический
университет имени А.Кадыри

Защита диссертации состоится «28» мая 2025 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140104, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, д. 43. Тел.: (99866)233-78-43, факс: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (рег. № 68865). Адрес: 140104, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, д. 43. Тел.: (99866) 233-78-43.

Автореферат диссертации разослан «12» мая 2025 года.
Реестр протокола рассылки за № 10 от «12» мая 2025 года.



Н.З. Насруллаева
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
философии по филологическим наукам
(PhD), доцент

Д.А. Киселев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор
филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой литературе тема животного мира и интерпретация социальных проблем в художественных произведениях занимают важное место, поскольку позволяют авторам глубже осмыслить природу человеческого существования, взаимоотношения человека с окружающей средой, а также социальные конфликты и моральные дилеммы. Образы животных часто становятся мощным средством метафорического выражения общественных проблем, раскрывая вопросы экологии, социальной несправедливости, власти и ответственности человека перед миром. Они позволяют не только акцентировать внимание на этических аспектах взаимоотношений между людьми, но и создать универсальные художественные символы, отражающие фундаментальные законы жизни. Подобные литературные произведения демонстрируют, что через образы животных можно выразить протест против социальных и политических несправедливостей, раскрыть природу власти и угнетения, а также поставить перед читателем философские вопросы о морали, свободе выбора, ценности жизни и будущем человечества.

В мировом литературоведении сопоставительно-типологическое изучение произведений, объединённых общей тематикой и художественной направленностью, но созданных представителями разных национальных традиций, до настоящего времени охватывало лишь отдельные аспекты анализа, что подчёркивает необходимость его расширения. Особое внимание заслуживают художественные тексты, в которых социальные проблемы осмысляются через образы животного мира. В произведениях тюркоязычной многонациональной прозы этот приём широко применяется для раскрытия философских и моральных конфликтов, где природа и человек противопоставляются, а животные становятся символами утраченной гармонии или носителями высших нравственных ценностей. Исследование этих аспектов не только позволит выявить закономерности развития национальных литератур, но и интегрировать новейшие теоретические подходы к изучению современной художественной прозы.

